

Mazkur sohaning iqtisodiy samaradorligi, avvalo, davlat byudjetiga tushumlarning ortishi, xorijiy investitsiyalar oqimining kengayishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, turizm sanoati xizmat ko‘rsatish, transport, savdo va boshqa ko‘plab tarmoqlarning rivojlanishiga turtki berib, milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta‘minlaydi.

Shuningdek, turizmning rivojlanishi hududlarning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, madaniy almashinuvni kengaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu bois, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sanoatini qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 1.Абидова, Дильфуза. «Эффективность инноваций, используемых в экологических отелях.» Innovation Science and Technology 1.6 (2025): 179-183.

2. Nurfayziyeva M. Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari //yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 1. – №.

3. Тойчиевна, Алиева Максбуба и Бехруз Иззатов. «Спортивный туризм и его подвиды, преимущества расширения спортивного туризма.» (2023).

4. Эгамназаров, Хусниддин. «Изучение Направлений Устойчивого Развития Туризма В Узбекистане.» Innovation Science and Technology 1.1 (2025): 28-34.

5. Халимова Ф. Мамлакат туризмни барқарор ривожланиш ҳолати //Архив научных исследований. – 2020. – №. 14.

6. Xalimova F. Qoraqalpog‘iston respublikasi turizmni rivojlantirish va hududning turistik jozibadorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasi //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – T. 2. – №. 5

**Shohruh MARDONOV,**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi,**  
**Komila HIKMATOVA,**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi**

## **O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING SO‘NGGI YILLARDAGI DINAMIKASI VA UNING TAHLILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosan 2020-2025-yillar mobaynida turizm sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarimiz, turizm sektorining rivojlanishi va dinamikasi, Covid-19 pandemiyasining turizmga ta‘siri, kiruvchi turizm va turizmga xizmat ko‘rsatishning bir necha tarmoqlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, turizm eksporti, turistik salohiyat, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, ichki turizm, COVID-19, tendensiya, xizmat defitsiti, infratuzilma.

**Аннотация.** В данной статье в основном анализируются достижения и недостатки

в сфере туризма за период 2020–2025 годов, развитие и динамика туристического сектора, влияние пандемии COVID-19 на туризм, а также въездной туризм и отдельные направления туристических услуг.

**Ключевые слова:** интеграция, экспорт туристических услуг, туристический потенциал, въездной туризм, выездной туризм, внутренний туризм, COVID-19, тенденция, дефицит услуг, инфраструктура.

**Abstract.** This article mainly analyzes the achievements and shortcomings in the tourism sector during 2020–2025, the development and dynamics of the tourism industry, the impact of the COVID-19 pandemic on tourism, as well as inbound tourism and several sectors of tourism services.

**Keywords:** integration, tourism export, tourism potential, inbound tourism, outbound tourism, domestic tourism, COVID-19, trend, service deficit, infrastructure.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va O‘zbekistonda xalqaro integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida turizm mamlakatimiz va jahonning yetakchi strategik sohasi sifatida tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Turizm sohasi dunyo tovar va xizmatlar eksportida to‘rtinchi, daromadi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi, turizmning dunyo yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizga yetgan<sup>179</sup>.

Turizm faoliyati dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda turizm industriyasi va unga aloqador sohalar tobora ko‘proq ish o‘rinlari yaratmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda turizm asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kiruvchi turizm – boshqa mamlakat fuqarolarining O‘zbekistonga sayohat qilishini anglatadi. Bu ko‘plab mamlakatlar uchun muhim daromad manbai va mintaqalar va iqtisodiyot va turizm sanoatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Chiquvchi turizm – O‘zbekiston fuqarolarining boshqa mamlakatlarga sayohat qilishini anglatadi.

Ichki turizm – ko‘rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo‘lgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidagi ichki yoki chiquvchi sayyohlik safariga doir faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Tashrif buyuruvchi<sup>180</sup> – bu o‘zining odatiy muhitidan biror-bir belgilangan asosiy joyga, tashrif buyurayotgan mamlakatda yoki joyda ro‘yxatga olingan korxonaga ishga joylashish maqsadlaridan tashqari, har qanday asosiy maqsadni (xizmat safari, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsad) ko‘zlab, bir yildan kam bo‘lgan muddatga safarni amalga oshiruvchi sayohatchi. Shu tariqa, “tashrif buyuruvchilar” tushunchasi “sayohatchilar” tushunchasining tarkibiy qismi hisoblanadi, “turizm” tushunchasi esa “sayohatlar” tushunchasining tarkibiy qismini ifodalaydi va barcha toifadagi tashrif buyuruvchilarning faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Ayni paytda yurtimizda 93 ta xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 ta davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilangan. 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga O‘zbekistonga keluvchi Xitoy, AQSh va Vyetnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi. Bundan tashqari, “Vatandosh”, “Student

<sup>179</sup> <https://wtcc.org/research/economic-impact>

<sup>180</sup> Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2016-2019 // Stat.uz. Toshkent – 2020. №2398. 15-16-b.

visa”, “Academic visa”, “Medical visa” va “Pilgrim visa” kabi yangi kirish viza turlari belgilandi. O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 2017-yilda 2,7 mln. nafar bo‘lsa, 2022-yilda 5,2 mln, 2023-yil o‘tgan 9 oyida 4,3 mln.ni tashkil etganini ko‘rish mumkin. Turistlarning mamlakatimizda o‘rtacha qolish muddati 4-5 kunni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 baravarga ortdi.

Har bir xorijiy turistning respublika hududida bevosita sayohat xarajatlaridan tashqari sarflaydigan o‘rtacha mablag‘ summasi 2017-yilda 197 AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 400 AQSh dollariga yetdi va turizm eksporti hajmi 2023-yil 9-oyida 1,72 mlrd. dollarga yetkazdi. Mahalliy (ichki) sayyohlar soni ham 2017-yilga nisbatan 107 foizga o‘tib, 14,9 million nafarni tashkil qildi. Mehmon o‘rinlari soni 2017-yildagi 37 mingtadan 3,4 barobarga ko‘payib, 128 mingtaga yetdi. Joylashtirish vositalari soni 2017-yildagi 767 tadan 2023-yilda 5,5 mingtaga yetkazildi. 2017-yilda 749 ta turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 2404 taga yetdi. Gid-ekskursovodlar soni esa 574 tadan 2864 taga yetdi.

Respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan fuqarolar yig‘inlariga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” va “Turizm ovuli” maqomini berish va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi. Mamlakatimizda birinchi bo‘lib Samarqand tumani Konigil qishlog‘ida 52 ta hunarmandchilik va dam olish maskanlari mavjud bo‘lgan “Turizm qishlog‘i” tashkil etildi va 200 nafardan ortiq mahalliy aholi ish bilan ta‘minlandi. 2022-yil davomida Navoiy viloyatining Nurota tumanida Sentob turizm qishlog‘i, hamda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Ertosh-soy va Ovjazsoy qishloqlariga “Turizm qishlog‘i” maqomi berildi. Ushbu qishloqlarda 90 ta oilaviy mehmon uylari, 20 turdagi xizmatlar tashkil etilishi natijasida 400 ga yaqin qishloq aholisi bandligi ta‘minlandi. Bundan tashqari, Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari rahbarlari kengashining sammiti doirasida Samarqand shahrida 260 gektar maydonda yangi turistik markaz barpo etilib, jahon standartlari darajasidagi 8 ta mehmonxona ishga tushirildi. Mazkur loyihaga 516 mln. dollar qiymatida investitsiya yo‘naltirgan. Demakki, shuncha vaqt mobaynida qilingan sa‘y-harakatlar mana bugungi kunga kelib o‘z mevasini bermoqda.

Quyidagi 1-jadvalda 2019-2023-yillar mamlakatimizda amalga oshirilgan tashriflar hajmi qayd etilgan:

### 1-jadval

#### 2019-2025-yillarda amalga oshirilgan turistik sayohatlar<sup>181</sup>

Yillar	Tashrif buyuruvchilar (jami)	Kiruvchi turizm	Chiquvchi turizm	Ichki turizm
2019	17 677 177	6 748 512	8 437 830	2 480 835
2020	4 574 812	1 504 126	2 001 521	1 069 165
2021	6 238 852	1 881 345	2 194 847	2 162 660
2022	12 870 939	5 232 781	5 163 177	2 474 981
2023	14 731 388	6 626 302	4 787 437	3 317 649
2024	16 831 228	7 761 109	5 601 234	3 852 103
2025	18 549 142	9 107 675	5 698 001	3 893 447

O‘zbekiston turizm sohasi 2016-yildan beri tez rivojlanib, 2019-yilda rekord

<sup>181</sup> Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2020 – 2026 // Stat.uz

darajaga chiqdi. Biroq 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli soha jiddiy zarar ko'rdi: chegaralar yopildi, karantin choralari joriy etildi, xalqaro sayohatlar deyarli to'xtadi.

Turizm eksporti (daromad) ham keskin kamaydi:

- 2019-yilda turizm eksporti 1,313 milliard AQSh dollari edi.
- 2020-yilda bu ko'rsatkich 74,1% ga tushdi.

Pandemiya ta'sirida turizm sohasi "muzlab qoldi", mehmonxonalar, tur operatorlari, gidlar va boshqa xizmatlar daromadsiz qoldi. Ko'plab ish o'rinlari yo'qotildi, bizneslar yopildi. Hukumat pragnozi bo'yicha 2020-yilda 8 million sayyoh kutilgan edi, ammo pandemiya bu rejalarni buzilishiga sabab bo'ldi.

Natijada, 2020-yil turizm sohasi uchun eng og'ir yil bo'ldi, ammo hukumat qo'llab-quvvatlashi va keyingi yillarda tiklanish (2021-yilda 1,88 mln, 2022-yilda 5,2 mln. sayyoh) sohani qayta jonlantirdi.

2024–2026-yillarda O'zbekiston turizm sohasi barqaror o'sish bosqichiga o'tdi. 2024-yilda kiruvchi turistlar soni 7,8 mln. nafarga yetib, pandemiyadan oldingi darajadan oshdi. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 9 mln.dan oshib, tarixiy rekord qayd etildi. 2026-yilning birinchi yarmidayoq 4,8 mln. xorijiy turist tashrif buyurgani turizm sohasining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish vizasiz rejim kengayishi, infratuzilma rivoji va xalqaro targ'ibot natijasidir.

2020-2021-yillarda pandemiya sababli sayyohlar soni past bo'lgan bo'lsada, 2022-2026-yillarda keskin tiklanish qayd etilgan. Umumiy tendensiya holati ijobiy, vaqt o'tishi bilan sayyohlar oqimi kuchaygan, bu turizm infratuzilmasi va vizasiz rejim kabi islohotlarning natijasi bo'lishi mumkin.

Ushbu 1-diagrammada mamlakatimizga kelgan boshqa davlat fuqoralari aks ettirilgan. Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi tahlilda aytilgani kabi vaqt o'tgan sari ularning salmog'i o'sib borgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilmoqda. Turizm sohasi vakillari ichki va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha choralarni ko'rishmoqda, birinchi navbatda, mamlakatimiz hududlaridagi turizm infratuzilmasini yaxshilashga doir faol ishlar olib borilmoqda. COVID-19 bilan bog'liq global pandemiya va undan keyin turizm sanoatida yuz bergan butun jahon inqirozdan oldin bizning yurtimizga tashrif buyurishni istagan sayyohlar oqimi kattaligi tufayli O'zbekiston mehmonxona sanoati joylar yetishmasligi va transport xizmatlarini ko'rsatishda qiyinchiliklarga duch keldi. 2020-yilda 8 millionga yaqin turistlar kelishi kutilgan edi. Lekin, pandemiya davri butun dunyoda va mamlakatimizda turizmning to'xtab qolishi va vaqtinchalik ishsizlikka olib keldi. Hozirda 2025-yilga kelib, pandemiya davridagi inqiroz deyarli qoplandi, ammo kadrlar va kerakli resurslarning yetishmovchiligi muammosi to'liq soha bo'yicha qamrab olinmagan va xizmat defitsit hali ham mavjud.

Turizm sohasidagi statistik ma'lumotlar davlatni baholash va davlat siyosatini shakllantirish, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek turistik oqimlar va aholining ehtiyojlarini kuzatish va tahlil qilishda bo'lgani kabi, bu hukumatga, vakolatli organlar, biznes hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarga qaror qabul qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va

mamlakatda turizmni barqaror rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva “Turizm asoslari” darslik O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti – T.: 2011. – 288b.
2. Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2016-2019. Toshkent – 2020. №2398.
3. Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi. // O‘zbekistonda turizm 2020-2023.
4. A.M.Abduvohidov, M.X.Yo‘ldoshev “Turizm iqtisodiyoti” darslik – TDIU, 2011 y. – 128 b.
5. World Travel and Tourism Council (2020), “Global Economic Prospects, June 2020”, Washington D.C, available at: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
6. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

**Shonazar ERMAMATOV,**  
**Menejment va kelajak texnologiyalari universiteti (UMFT),**  
**“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.**

## **O‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANTISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston turizm industriyasining 2010-2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari va bosqichlari tahlil qilingan. Muallif sohaning institusional islohotlari, viza rejimining liberallashtirilishi va infratuzilmani modernizatsiya qilishning turizm daromadlari hamda turistlar oqimiga ta’sirini o‘rgangan. Maqolada turizm sektorining milliy iqtisodiyotdagi roli, sohani diversifikatsiya qilish va barqaror turizm tamoyillarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm industriyasi, turistik oqim, viza liberallashtirilishi, turistik mahsulot, barqaror turizm, iqtisodiy o‘shish, turistik infratuzilma.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются тенденции и этапы развития туристической индустрии Узбекистана в период 2010-2024 гг. Автор исследует влияние институциональных реформ, либерализации визового режима и модернизации инфраструктуры на доходы от туризма и поток туристов. Особое внимание в статье уделяется роли туристического сектора в национальной экономике, вопросам диверсификации отрасли и внедрению принципов устойчивого туризма.*

***Ключевые слова:** индустрия туризма, туристический поток, либерализация визового режима, туристический продукт, устойчивый туризм, экономический рост, туристическая инфраструктура.*

***Abstract.** This article analyzes the trends and development stages of the tourism industry in Uzbekistan between 2010 and 2024. The author explores the impact of institutional reforms, visa liberalization, and infrastructure modernization on tourism revenues and tourist flows. Special attention is paid to the role of the tourism sector in the national economy, issues of industry diversification, and the implementation of sustainable tourism principles.*